

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

<u>Fizika-matematika fanlari:</u>	akad. S. Zaynobiddinov akad. A. A'zamov f-m.f.d., prof. B. Samatov f-m.f.d., dots. R. Xakimov f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
<u>Biologiya fanlari:</u>	akad. K. Tojibayev akad. R. Sobirov b.f.d., prof. A. Batashov b.f.d., prof. N. Abdurahmonov b.f.d., prof. F. Kushanov b.f.d., prof. A. Kuchboyev b.f.d., dots. D. Dexqonov
<u>Texnika fanlari:</u>	t.f.d., prof. A. Umarov t.f.d., prof. S. Yunusov
<u>Tarix fanlari:</u>	akad. A. Asqarov s.f.d., prof. T. Fayzullayev s.f.d., prof. N.B. Dexkanov t.f.d., prof. A. Rasulov
<u>Falsafa fanlari:</u>	f.f.d., prof. M. Ismoilov f.f.d. dots. Z. Isaqova f.f.d., G. G'affarova p.f.d., dots. T. Ismoilov PhD. A. Abdullayev
<u>Pedagogika fanlari:</u>	p.f.d., prof. U. Inoyatov p.f.d., prof. B. Xodjayev p.f.d., prof. O'. Asqarova p.f.n., dots. M. Nishonov p.f.n., dots. A. Sattarov p.f.n., dots. M. Asqarova p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva p.f.d., dots. S. Abdullayev PhD., dots. D. Sarimsakova PhD., B. Urinov

Texnik muharrir:

S. Xoshimov

Tahririyat manzili:

Boburshox ko'chasi, 161-uy

Kimyo fanlari:

akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattarov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD. D.S. Xolmatov.

Filologiya fanlari:

fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosboyeva

Qishloq xo'jaligi fanlari:

g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari:

g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari:

i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari:

b.f.d., prof. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari:

p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

Faks: (0369)227-07-61

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 17-maydagi 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



Gulamova Munisxon Mahmudovna

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbahunosligi, falsafa" kafedrasida dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: munisxongulamova@gmail.com

MUHAMMAD PORSO TA'LIMOTINING YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIY TARBIYASIDAGI ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xoja Muhammad Porso tasavvufiy ta'limotini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan. Muhammad Porso yigirmadan ortiq tasavvuf, irfon falsafasi, tasavvuf nazariyasi va tariqatlar tarixi, adabiyot, geografiya, tarix fanlariga doir mufassal asarlar yozib qoldirdi. Uning ilmiy merosi temuriylar davri madaniy yuksalishlariga munosib hissa bo'lib qo'shilganligi tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: tasavvuf, tafakkur, ilm, vijdon, zikr, yod etish, ijtimoiy hayot, axloqiy yetuklik.

Гуламова Мунисхан Махмудовна

доцент кафедры «Исламская история и источниковедение, философия», доктор философских наук (PhD)
Бухарского государственного университета.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УЧЕНИЯ МУХАММАДА ПОРСО В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ НОВОЙ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАН.

Аннотация: В данной статье отражено научное и практическое значение изучения мистического учения Ходжи Мухаммада Порсо. Мухаммад Порсо написал более двадцати подробных работ по суфизму, мистической философии, теории суфизма и истории сект, литературе, географии, истории. Анализируется, что его научное наследие внесло достойный вклад в развитие культуры периода Тимуридов.

Ключевые слова: Суфизм, мысль, наука, сознание, память, общественная жизнь, нравственная зрелость.

Gulamova Muniskhan Mahmudovna

associate professor of the department of "Islamic history and source studies, philosophy"
doctor of philosophy (PhD) of Bukhara State University

SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF MUHAMMAD PORSO'S TEACHINGS IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF NEW YOUTH OF UZBEKISTAN.

Annotation: In this article, the scientific and practical importance of studying the mystical teachings of Khoja Muhammad Porso is reflected. Muhammad Porso wrote more than twenty detailed works on Sufism, mystic philosophy, Sufism theory and the history of sects, literature, geography, history. It is analyzed that his scientific heritage made a worthy contribution to the cultural development of the Timurid period.

Keywords: mysticism, contemplation, knowledge, conscience, remembrance, memorization, social life, moral maturity.

Kirish

Tasavvufiy tafakkur tarixida naqshbandiya tariqati nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso haqida nufuzli manbalarda ma'lumotlar o'z aksini topgan. Xoja Muhammad Porsoning to'liq ismi-Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy faqih olim Xisomuddin Yusuf avlodlaridan bo'lib, Bahouddin Naqshbandning hamrohi va sodiq izdoshi Hofizuddin al-Kabir, al-Buxoriyning nevarasidir. U 1345 yilda Buxoro shahrining "Quyi dehqon" [1]. mahallasida tug'ilgan, hijriy

822 (milodiy 1420) yilda Madina shahrida vafot etgan va shu shahar yaqinidagi "Jannatul Baqe'" qabristoniga dafn qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xoja Muhammad Porso ilmiy merosining tahlili hamda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning xulosalariga tayanib uning asarlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Islom ilmlariga bag'ishlangan (Qur'on, hadis, tafsir, kalom) asarlar;

II. Naqshbandiya tariqati va tasavvuf nazariyasiga oid asarlar;

III. Tarix, geografiya, adabiyot, biografiya turkumiga kiruvchi asarlar.

IV. Tahqiq, ya'ni izlanishlar turkumiga kiruvchi kitoblar.

Muhammad Porso yigirmadan ortiq tasavvuf, irfon falsafasi, tasavvuf nazariyasi va tariqatlar tarixi, adabiyot, geografiya, tarix fanlariga doir mufassal asarlar yozib qoldirdi. Uning ilmiy merosi temuriylar davri madaniy yuksalishlariga munosib hissa bo'lib qo'shilgan [2].

Xoja Muhammad Porso tasavvufda "Porsoiya" ta'limoti asoschisi hisoblanadi XIV-XV asrlardagi ma'rifiy, madaniy, rivojlanish diniy-falsafiy ta'limotlarning takomillashib, mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, islom dinini, falsafiy, tasavvufiy g'oyalar, ma'rifiy ta'limotlarni o'rganish va o'qitishga e'tibor qaratildi. Din ahllari va ulamolarning davlat ishlaridagi ishtiroki uchun imkoniyat mavjud edi. Bu haqda Temur tuzuklarida din arboblari, shayx, sayyid, ulamolar faoliyatiga o'rin ajratilib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki bir necha bor qayd etilgan. Temur va temuriylar zimmasiga mo'g'ullarning bosqinchiligi asoratini tiklash hamda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish vazifasi tushadi. Mo'g'ullarning Movarounnahr o'lkasi hududlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashlari madaniy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatganligini, o'lka madaniyati tarixiga oid manbalar, ilm maskanlari, madrasa va kutubxonalar qarovsiz qolganligini, ko'plab ilm-fan, san'at, adabiyot, vakillari, ulamolar toifasi, olimlar, me'mor va musavvirlar aziyat chekkanligi, ko'pchilik ulamolar boshqa yurtlarga chiqib ketganliklarini, shu chigal vaziyat sabab ilmga e'tibor pasaygan [3].

Mutasavvif ilmiy merosini o'rganish davomida quyidagi ishlar zarur hisoblanadi. Xoja Muhammad Porso dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan (XIV-XV asr) ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy muhit xususiyatlarini ochib berish, mutasavvifning inson tushunchasiga oid qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini falsafiy antropologik mohiyatini yoritish, inson tabiati, xislatlari va toifalari haqidagi falsafiy-irfoniy g'oyalarning tasavvuf falsafasi rivojiga ta'sirini asoslash, Xoja Muhammad Porso ma'naviy merosida tasavvuf antropologiyasi, inson kamoloti va diniy-axloqiy g'oyalarning falsafiy jihatlarini tahlil etish, Xoja Muhammad Porsoning farosat, saodat belgilari, husni xulq tushunchalarining yoshlar axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish kabi vazifalardir [4].

Xoja Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" asarida Bahouddin Naqshband ta'limoti nazariy boyitilganligi hamda inson tushunchasining (aksiologik, antropologik) negizda "Dil ba Yor, dast ba kor" (tana va ruh uyg'unligi) g'oyasiga mutanosib ekanligi mazkur tariqat asoschilari asarlari, Muhammad Porso "Fasl-al xitob" asarida ilgari surgan "Farosat" ilmi konsepsiyasi

antropologik va gnoseologik ta'limotlar bilan o'zaro dialektik ildizlarga egadir. Xoja Muhammad Porso o'zining "Tahqiqot" asarida tasavvufning yuqorida tahlil etilgan tasavvufiy axloqiy kategoriyalari xususidagi fikrlariga qo'shimcha tarzda "فراست" "firosat", ziyraklik, sezgirlik, "topqirlik". 1) biror narsaning tashqi ko'rinishi, shakli, suvrati va belgilariga qarab, ichkarisi, ichki xususiyati, mohiyatini bilish, zohirga qarab botinni bilish; 2) g'aybiy ishlarni tafarrus, ya'ni fahm idrok, ichki sezgi va topqirlik bilan kashf etish haqidagi qarashlarini bayon qiladi. Uning fikriga ko'ra, "farosat bu-qalb ko'zi, qalb nazari, qalb nigohi bo'lib, uch turlidir: birinchisi, "farosati bahriya", uni ajratuvchi yoki aqliy farosat, - deb uqtiradi. Chunki, inson farosati bilan oq va qorani, yaxshi va yomonni ajratib oladi. O'zini qanday tutishni, xatti harakatlarini tartibga soladi. Ikkinchisi, "farosati istedloloy" bu inson fikrini hodisalarning sabablari va umumiy qonuniyatlari asosida dalilovchi farosat. Uchinchisi, "farosati qalbiy", qalbiy farosat, bu qalb nazari bilan ko'rish, tanish, bilishdir. Muhammad Porso "Faslul-xitob" asarida shunday yozadi: "Farosat ilmi shuki o'tganlar shamollaridan bir shamol va karam jazabalaridan bir jazaba, yo'l yuruvchiga qabul yuzasidan yetadi. G'aflat pardasi haqiqat ko'zi bilan o'rtadan ko'tariladi. Uning diydasi Ahadiyat nuri bilan surmalanadi. Bunday ilm g'oyat izzatli bo'lib ulug'ligidan faqat "xitob" ("qat'iy qaror") yo'li bilan hosil qilinadi va harflaru kalimalar kiyimiga sig'maydi. Kim Allohni tanisa tili aylanmay qoladi. Orif o'z ma'lumotlari mohiyatidan ibora topa olmay qoladi. Kim buni zavqini topmas ekan, bilmaydi". Xoja Muhammad Porsoning ma'naviy merosida "Farosat" axloqiy barkamollikning eng yuqori darajasi sifatida talqin qilinadi [5]. Albatta, so'fiyona kamolot anglash, bilish, irfon tarzida ichki intuitiv bilish o'ziga xos ramz, ishorat, holatlar bilan ifodalanadi. Solikning haqiqatdan g'aflatda qolmasligi uning farosatiga bog'liq bo'ladi. Biroq uning ma'naviy-axloqiy mohiyati inson borlig'ining tub negizlarini ko'rsatib beruvchi omil bo'la oladi. Inson bilimli, aqli, hamma narsani tushinadigan sifatlarga ega bo'lishi mumkin, lekin farosati bo'lmasa hammasi bekor. Ibn Sino fikriga ko'ra, farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o'zlari yashirib yurgan fe'l atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirilishi natijasida o'z bilishing bilan unga bog'lanib qolarsan. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo'li tegsa, sen juda o'tkir bo'lib ketasan. Agar seni bir aldoqchi yo'ldan ozdirib, tuzog'iga tushira olsa, aldanasan. Ibn Sino farosat-mantiq ilmi mohiyati haqida fikr yuritayotganligini tushunish qiyin emas. U bilishda faqat hissiy bilish bosqichi emas, balki aqliy bilish bosqichida to'la bilimga ega bo'lishiga ishora qiladi. U o'z davrida inson nafsini tiyganda, har qanday xayol, hissiyotlarga berilmaganda, inson ilm bilan shug'ullanishi mumkin, degan xulosaga keladi. Xoja Muhammad Porso "Faslul xitob" asarida "az ilm xushtar

hech chiz niyst" - deb ta'kidlaydi [6].

Natijalar. Xoja Muhammad Porso bilan Ibn Sino farosat borasidagi "kesishuv" nuqtalari shundan iboratki, aqliy bilish hissiy bilishni davomidir. Xayol, faraz, g'azab, ichki va tashqi sezgi, aqliy bilish aloqadorliklarini ko'rsata oladi. O'rta asr faylasuflarining talqinicha - "faol aql" hamma narsaning asosi boshidir. Farosat axloqiy komillik, ma'nvaivi yetuklik asosi sifatida talqin etiladi[7]. Xoja Muhammad Porso asarlarida axloqiy masalalar tahlilida farosat ilmiga alohida e'tibor qartadi. Uni komil inson sifatleri, fazilatlarining muhim genezisi sifatida ilgari surgan. Shuningdek, uning "Risolai qudsiya", "Faslul xitob" asarlarida alohida axloqiy qarashlari bayon etilgan. Xususan uning "Husni xulq" haqidagi qarshlari axloqiy konsepsiyalarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lgan deyish mumkin [8].

Mazkur ta'limot tasavvufda inson falsafasiga oid qarashlarning takomillashuviga xizmat qiladi. Inson borlig'idagi tabiat (modda), ma'naviy (qalb, nafs, husni xulq) inson mohiyatining asosi ekanligi va ularning o'zaro deterministik ta'siri falsafiy ta'limotlarning ontologik xususiyatlari bilan bog'liqligi "Fasl-al xitob" asaridagi falsafiy-antropologik g'oyalar, Fasl-al xitob" asaridagi ilm, ma'rifatli bo'lish, saodat belgilari, ikki olam saodatiga erishish singari komillikka undovchi g'oyalari inson qadrini ulug'lash, ma'rifatli ma'naviy makon barpo etishda hamda yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda substansional asosga egadir. Xoja Muhammad Porso ma'naviy merosining inson borlig'i, moddiy va ma'naviy uyg'unlik asosida Sharq falsafasida olam va odam munosabati, umuminsoniy qadriyatlar "Inson falsafasi," mohiyati va diniy bilimlarning zamonaviy shaxs tarbiyasi va insonparvarlik g'oyalari ilmiy ahamiyatga egaligi, ma'rifatli, farosatli yoshlarni tarbiyalash, inson qadrini ulug'lash, inson inson uchun g'animat, jamiyatning turli qatlamlari orasidagi hamjihatlikni mustahkamlash, shaxslararo munosabatlarda murosa madaniyatini shakllantirish, Yangi O'zbekiston jamiyatida tasavvufiy qadriyatlar integratsiyasiga oid g'oyalardan ijtimoiy amaliyotda foydalanish zarurdir [9].

Muhokama. Inson tarbiyasida ilm, ma'rifat, farosat, o'zlikni anglash borasidagi mezonlari asoslangan hamda globallashuv sharoitida jamiyat ma'naviy-mafkuraviy hayotida Xoja Muhammad Porso ma'naviy merosidagi antropologik mazmunga ega g'oyalardan "egotsentrizm", "axloqiy nigilizm"ga qarshi kurashishda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni oshirishda, o'sib kelayotgan yosh avlodda ilm, ma'rifatli bo'lish, ikki olam saodatiga erishish singari komillikka undovchi konsepsiyalari inson qadrini ulug'lash, ma'rifatli ma'naviy makon barpo etishda hamda yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda foydalanish mumkin [10].

Mazkur g'oyalardan falsafa tarixi tahlili, jumladan Sharq mutafakkirlari hamda Xoja Muhammad Porsoning antropologik qarashlarining nazariy masalalarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, O'zbekistonda qolaversa, butun dunyo miqyosida tasavvufning inson borlig'i, farosat, go'zal axloq, komilik fazilatlarining Yangi O'zbekiston yoshlarida inson qadrini ulug'lash, ma'rifiy va axloqiy tarbiyani rivojlantirishda Xoja Muhammad Porso falsafiy-antropologik qarashlari dolzarbligining isbotlanganligi, "Falsafa tarixi", "Tasavvuf falsafasi", "Tasavvuf tarixi", "Tasavvuf germevntikasi", "Tarbiya", "Etika", Ma'naviyatshunoslik fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Xulosa. Mazkur ta'limotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan Xoja Muhammad Porsoning falsafiy-antropologik qarashlaridan ilmiy ishlarda faylasuflar, mutasavviflar g'oyalari bilan qiyosiy tahlil qilishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining tarbiyalash faoliyatida, Tasavvuf ilmi maktabi tinglovchilari va ilmiy-madaniy jamoatchilikni keng xabardor etish, ularning kasbiy mahoratlarini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy, metodik o'qishlarida, shuningdek, Xoja Muhammad Porsoning va Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining taqdimotiga oid ma'ruzalarda hamda mavzuga oid o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanishda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.A. Suxareva. Kvartalnaya obshina pozdnefeodalnogo goroda Вухагы. Moskva. 1976.-S.296.
2. فراسات -فرهنگ تفسیری زبانی تاجکی دوشنبه 2008 س. فراست
3. Xitob-qat'iy qaror
4. Muhammad Porso. Faslul-xitob. Qo'lyozma. Tarjima N.B. – Buxoro: Kogon, Naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv.42. -B.238.
5. Xayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'unlik davri madaniyati.-Toshkent: Fan, 1994.-B.10.
6. Abdaxalimov B. Baytu-l-hikma va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati: IX-XI aniq va tabiiy fanlar. - Toshkent, Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004-B.209-236.
7. Komilov N. Tasavvuf.-Toshkent: "Movarounnahr" 2009.-B.4.
8. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akadimik Xayrullaev M.M. tahriri ostida.-Toshkent: 1995 -B. 103-104.

9. Faxruddin Ali Safiy. Rashohot aynu-l-hayot. Xudoybergan Bekmuhammad tarjimasi. - Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004-B.22.

10. Xayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. -Toshkent: Fan, 1994.-B.10.

FALSAFA FANLARI**09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ****PHILOSOPHICAL SCIENCES**

Tojikiston siyosatida diniy bag'rikenglik masalalari.	
M.Otamurodov.....	330
Iste'molchilik jamiyatiga doir qarashlar.	
A.Mirzaxmedov.....	335
Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida rahbar va boshqaruv kadrlarni tayyorlash masalalari.	
I.Arzimatova.....	339
Muhammad Porso ta'limotining yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviy tarbiyasidagi ilmiy va amaliy ahamiyati.	
M.Gulamova.....	344
Jamiyatda ijtimoiy normalarni takomillashtirishda milliy qadriyatlarning o'rni.	
S.Berdikulova, S.Xudaynazarov.....	348
Bahouddin Naqshband tariqatlarida bag'rikenglik va insonparvarlik masalalari.	
B.Dehqonov.....	352
Xojagon Tasavvufiy tariqatida "Tavba" maqomi haqida.	
O.Sharipova.....	356
Axloqiy tafakkur taraqqiyotida fazilat va illat talqini.	
L.Muxamedjanova.....	360
Samoniylar davri falsafasi va uning Abu Abdulloh Rudakiy falsafiy-axloqiy qarashlariga ta'siri.	
A.Azimov.....	365
Философский анализ исторических и социокультурных аспектов восточного гуманизма.	
У.Джалилова.....	369
Inson kapitalini rivojlantirish markaziy osiyoda taraqqiyot omili sifatida.	
A.Shirinov.....	376
Исторические предпосылки биоэтики.	
Ш.Жумаева.....	381
O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimi va "Yaxshilik"ning hamohanglashuvi.	
M.Abduraxmanova.....	384
Antik davr faylasuflarining Abu Ali Ibn Sino dunyoqarashiga ta'siri.	
D.Axatova.....	389
Yevropada uyg'onish davri falsafasining manbalari va yo'nalishlari.	
D.Normatova.....	393
Orolbo'yi mintaqasida davlat ekologik siyosatini takomillashtirish zaruriyati.	
R.G'ulomova.....	397
Ekologik dunyoqarashning qadriyatlarda namoyon bo'lish xususiyatlari.	
Z.Kenjayeov.....	401
Antik davr falsafiy ta'limotlari va qarashlarida murosa tushunchasining o'ziga xos jihatlari.	
B.Abdusattorov, M.Toshmurodov.....	405
Addiktiv axloq egalari muammoli faoliyatining falsafiy tahlili.	
D.Toshpo'latov.....	410
Postindustrial jamiyatda zamonaviy texnologiyalarning transgumanistik tahlili.	
U.Suvonova.....	413
Hamza ijodiy faoliyatida ayollarning huquq va erkinliklari, gender tenglik masalalari.	
B.Karimova.....	416
Zamonaviy kontsepsiyalarda ijtimoiy taraqqiyot masalasi.	
D.Sagdullayeva.....	418
Flantropik harakatning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsion rivojlanishi.	
I.Toshpo'latov.....	422
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish va uni ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llash.	
Z.Xojaev.....	425
O'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ahamiyati.	
S.Yuldashev.....	429
Ekologik faoliyatning ma'naviy-intellektual asoslarini rivojlantirish masalalari.	